O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI
SAMARKAND BRANCH OF TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS
TDIU SF

“O‘ZBEKISTONDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINI JORIY ETISH TENDENSIYALARI”

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

ILMIY MAQOLALAR TO‘PLAMI

22–23 MAY 2026 YIL



Tashkiliy qo‘mita a’zolari:

Murtazaev Olim
Tashkiliy qo‘mita raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali direktori, i.f.d., professor

G'aniyev Ibragim Mamadiyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali o‘quv ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, i.f.n., dotsent

Abdullayev Zafar Xasanovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, i.f.f.d. PhD, dotsent

Taniyev Ahmadjon Bahromovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va moliya” fakulteti dekani, i.f.d., professor

Abduvohidov Sunatillo Abdinabiyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig’i

Mardonov Mamed Shavkatovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi mudiri, PhD.,dotsent

Xikmatov Xakimxon Xamzaevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi dotsenti, i.f.n

Rabbimov Elbek Abdulloyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi dotsenti, PhD.

“O’zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish tendensiyalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Samarqand. TDIU SF, 2026 yil**.**

Nashr uchun mas’ul: M.Sh.Mardonov -PhD.,dotsent

Tahririyat hay’ati raisi:
O. Murtazayev - i.f.d, professor

Tahririyat hay’ati a’zolari:

Z.X. Abdullayev	iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
M.Sh.Mardonov	iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
N.Xalilov	iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
X.X.Xikmatov	iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
X.Ibayev	iqtisodiyot fanlari nomzodi, katta o‘qituvchi
E.A.Rabbimov	iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Texnik muharirlar:

U.T.Umirov	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi o‘qituvchisi
N.A.Narzullayev	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi o‘qituvchisi
B.A.Mirzayev	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi o‘qituvchisi
I.I.G‘afforov	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi o‘qituvchisi
O.F.Ergashev	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

A.B.Taniyev	iqtisodiyot fanlari doktori, professor
K.B. Urazov	iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ushbu to‘plamga 2026 yil 22-23 may kunlari Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida “O‘zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish tendensiyalari” mavzusida o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjuman qatnashchilarining ma’ruza materiallari kiritilgan. Ushbu to‘plam OTM professor-o‘qituvchilari, doktarant va mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar shuningdek iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan iqtisodchi hamda amaliyotchi buxgalterlar uchun mo‘ljallangan. Maqolalar mualliflar tahririda bosilgan. Ularda keltirilgan, raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

I SHO‘BA. Moliyaviy hisobni tashkil etish va xalqaro standartlar prinsiplarini qo'llash		
1.	**QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARINI BOSHQARUV HISOBI XUSUSIYATLARI: GERMANIYA MISOLIDA (IAS 41 ASOSIDA)** *Mardonov M.Sh.*	13
2.	**BUXGALTERIYA HISOBINING XALQARO STANDART — 41 "QISHLOQ XO'JALIGI"NING QO'LLANILISHIDA YUZAGA KELGAN MUAMMOLAR** *Abdullayev Z.H.*	17
3.	**ASOSIY VOSITLARGA QILINADIGAN XARAJATLAR VA ULARNING QADRSIZLANISHINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH** *Nematova Dilnoza Azamatovna*	25
4.	**MOLIYAVIY HISOBOTNING 18-XALQARO STANDARTIDAGI O‘ZGARISHLAR VA ULARNING O‘ZBEKISTON MOLIYAVIY HISOBOTIGA TA‘SIRI** *M.Sh.Ergasheva*	34
5.	**CHORVACHILIK FAOLIYATIDA XARAJATLAR HISOBI VA MAHSULOTLAR TANNARXINI HISOBLASH USLUBIYOTI** *Mardonov Mamed Shavkatovich*	39
6.	**QO‘SHIB YUBORILAYOTGAN KORXONALAR FAOLIYATINI TUGATISH JARAYONLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA HISOB VA HISOBOTDA AKS ETTIRISHNI TASHKIL QILISH MASALALARI** *Abdurasulov Jamshidbek Axmad ug‘li*	43
7.	**AVTOMAKTABLARDA ASOSIY VOSITALARNI BAHOLASH VA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH (“Charxin Avto maktab” MChJ misolida)** *Narzullayev Nodir Aziz o‘g‘li, Mirzayev Behzod Abdug’ofur o‘g‘li, G’offorov Ilhonjon Ilyosjonovich, Narziqulov Oybek Mashxurbek o‘g‘li*	50
8.	**TANNARX BUXGALTERIYA HISOBIGA ZAMONAVIY TA’RIF** *Dilfuza Tashnazarova*	57
9.	**SAVDODA BUXGALTERIYA HISOBINING MUHIM VAZIFALARI** *Umarov Javohir*	62
10.	**XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARI ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBNI TASHKIL ETISH MASALALARI** *Umirov Ulug‘bek Tayirbayevich*	66
11.	**RAQAMLI IQTISODIYOTDA ELEKTRON TIJORAT (ONLAYN SAVDO) SUBYEKTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI MILLIY VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH** *Mirzayev Behzod Abdug'ofur o'g'li, G’offorov Ilhomjon Ilyosjonovich, Baxronova Farnangiz*	77

TANNARX BUXGALTERIYA HISOBIGA ZAMONAVIY TA’RIF

Dilfuza Tashnazarova
Samarqand iqtisodiyot va servis institute doktoranti
ORCID: 0009-0003-0575-2818
dilfuza11122000@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “Tannarx buxgalteriya hisobi” tushunchasining olimlar va professional tashkilotlar tomonodan berilgan ta’riflar tadqiq qilingan va muallif tomonidan Tannarx buxgalteriya hisobiga zamonaviy ta’rif ishlab chiqilgan*

Kalitli so‘zlar: *Tannarx buxgalteriya hisobi, menejment hisobi, xarajatlar, tannarx, standart tannarx.*

Аннотатsiя: *В данной статье рассматриваются определения понятия «учет себестоимости», данные учеными и профессиональными организатsiями, и автор разрабатывает современное определение учета себестоимости.*

Ключевые слова: *учет себестоимости, управленческий учет, расходы, себестоимость, стандартная себестоимость.*

Abstract: *This article examines the definitions of the concept of "Cost Accounting" given by scholars and professional organizations, and the author develops a modern definition of Cost Accounting.*

Keywords: *Cost Accounting, Management Accounting, Expenses, Cost, Standard Cost*

Tannarx buxgalteriya hisobini buxgalteriya hisobining alohida tarmog’i sifatida tavsiflash, uning ob’ekti, predmeti, funktsiyalar va vazifalarini belgilash ahmiyat kasb etadi. Bizning amaliyotimizda “xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalьkulyatsiya qilish” tushunchasidan foydalanib kelmoqda. Bugungi kunda mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxini aniqlash, mahsulot tannarxini optimallashtirish, uni kamaytirish masalalari o’ta dolzarb hisoblanadi. Shu bois, ushbu masalalarning tannarxni aniqlash uslubiyotini belgilab beradigan fan tarmog’i bo’lishga zaruriyat bor. Xorijiy adabiyotlarda bu Tannarx buxgalteriya hisobi (Cost Accounting) deb ataladi.

Yetakchi xorijlik olimlarning nufuzli darsliklar va ilmiy maqolalarida tannarx buxgalteriya hisobiga (cost accounting) bergan ta’riflarini quyidagi jadvalda umumlashtiramiz (1-jadval).

1-jadval

Yetakchi xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan tannarx buxgalteriya hisobi (cost accounting) tushunchasiga berilgan ta’riflar[12]

Olimlarning ismi sharifi	Berilgan ta’riflar
The institute of company secretaries of India	“Tannarx buxgalteriya hisobi buxgalteriya hisobining ixtisoslashtirilgan tarmog'i sifatida ko'rib chiqilishi mumkin, bu tasniflashni, xarajatlarni to'plash, belgilash va nazorat qilish o'z ichiga oladi.”[13]
C.I.M.A. London	“Tannarx buxgalteriya hisobi operatsiyalar, faoliyatlar yoki mahsulotlarning byudjetlari, standart tannarxi va haqiqiy tannarxini belgilash hamda tafovutlar, rentabellik, shuningdek mablag'lardan ijtimoiy foydalanishning maqsadga muvofiqligini tahlil qilishdan iborat”[14]
M.N. Arora	“Tannarx buxgalteriya hisobi menenejmentning turli bug’inlariga o’zining funktsiyalarini samarali bajarishi uchun tannarx to’g’risida batafsil axborotlarni ta’min etadi. Xarajatlar hisobi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar kamyob resurslardan samarali foydalanishni optimallashtirish hamda turli xarajat yo‘nalishlari bo‘yicha sarf-xarajatlarni nazorat qilish orqali oxir-oqibat korxonaning foydaliligini oshirish uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.”[15]
Charles T. Horngren, Srikant M. Datar and Madhav V. Rajan	“Tannarx buxgalteriya hisobi boshqaruv hisobi va moliyaviy hisobot uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etadi. Tannarx buxgalteriya hisobi tashkilotda resurslarni sotib olish yoki ulardan foydalanish bilan bog‘liq moliyaviy va nomoliyaviy ma’lumotlarni o‘lchaydi, tahlil qiladi va hisobot shaklida taqdim etadi. Masalan, mahsulot tannarxini hisoblash tannarx buxgalteriya hisobining funksiyasi bo‘lib, u moliyaviy hisobot uchun zaxiralarni baholash ehtiyojlarini, shuningdek boshqaruv

[12] Mualliflar ta’riflari asosida muallif ishlanmasi

[13] Executive programme cost and cost and management management accounting accountin. The institute of company secretaries of India// Laser Typesetting by Delhi Computer Services, Dwarka, New Delhi Printed at M. P. Printers/July 2017. 3-bet.

[14] Shu joyda, 3-bet

[15] M.N. Arora. A textbook of Cost and Management Accounting (10th Revised Edition). Vikas publishing house PVT LTD. 2012.

	hisobi uchun qaror qabul qilish ehtiyojlarini (masalan, mahsulot narxini belgilash va qaysi mahsulotlarni targ‘ib qilishni tanlash) qondiradi.”[16]
P.O. Malappuram, Kerala,	“Tannarx buxgalteriya hisobi “hisobning ixtisoslashgan sohasi bo‘lib, u xarajatlarni tasniflash, jamlash, taqsimlash va nazorat qilishni o‘z ichiga oladi” deb qaralishi mumkin.”[17]
AQShning Milliy buxgalterlar assotsiatsiyasi (NAA)	“Tannarx buxgalteriya hisobi — bu tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlarni umumiy va batafsil tarzda o‘lchash, yozib borish va hisobot qilish uchun tizimli jarayonlar majmuasidir. Shunday qilib, tannarx buxgalteriya hisobining quyidagi xususiyatlari mavjud: i) bu xarajatlarni hisobga olish jarayonidir; ii) u tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq daromad va xarajatlarni qayd etadi; iii) u statistik ma’lumotlarni taqdim etadi, ular asosida kelajak xarajatlari baholanadi va taklif (kotirovka)lar tayyorlanadi; iv) u xarajatlarni aniqlash va nazorat qilish bilan shug‘ullanadi; v) u byudjetlar va standartlarni belgilaydi, shunda amaldagi xarajatlar bilan solishtirib, farqlar (og‘ishlar) aniqlanadi; vi) u to‘g‘ri ma’lumotni to‘g‘ri vaqtda to‘g‘ri shaxslarga taqdim etishni o‘z ichiga oladi, bu esa boshqaruvga rejalashtirish, faoliyatni baholash, nazorat qilish va qaror qabul qilishda yordam beradi.”[18]

Tannarx buxgalteriya hisobining nazariy asoslari va uning boshqaruv tizimidagi o‘rni chuqur o‘rganilib, mavjud ta’riflarning umumiy jihatlari tahlil qilindi. Ushbu ilmiy tahlil natijasida quyidagi takomillashtirilgan ta’rifni keltirish mumkin: **Tannarx buxgalteriya hisobi deganda, korxonada yaratilayotgan mahsulot, bajarilayotgan ish yoki ko‘rsatilayotgan xizmatlarga sarflangan moddiy, mehnat va boshqa turdagi resurslarni iqtisodiy mazmuniga ko‘ra o‘lchash, tasniflash, qayd qilish, baholash, zamonaviy kosting tizimlarini**

[16] Charles T. Horngren, Srikant M. Datar and Madhav V. Rajan. Cost Accounting: A Managerial Emphasis, 14th edition, ISBN 978-0-13-210917-8 by Charles T. Horngren, Srikant M. Datar and Madhav V. Rajan, published by Pearson Education, publishing as Prentice Hall © 2012. 26 p.

[17] P.O. Malappuram, Kerala. Cost accounting. //https://sde.uoc.ac.in/sites/default/files/sde_videos/BComCoreCostAccounting_on09March2016.pdf

[18] Anna Salai, Saidape. COST ACCOUNTING. 2023 (First Edition). Virudhunagar District Co-operative Printing Press Ltd, //https://tnou.ac.in/eslm/UG/B.COM%20COMPUTER%20APPLICATIONS/3RD%20YEAR/BBCAN-34%20Cost%20Accounting%20final.pdf

qo‘llash, tannarx taqsimoti hamda qiymat zanjirining turli qismlarida tannarx, shuningdek to‘liq tannarxning shakllanishi, tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun integratsiyalashgan axborotlarning boshqaruv tizimiga aytiladi.

Tannarx buxgalteriya hisobi va menejment hisobi korxona boshqaruvining ichki axborot tizimlari bo‘lib, ularning asosiy vazifasi boshqaruvni rejalashtirish, nazorat qilish va qaror qabul qilishda zarur bo‘lgan ma’lumotlarni shakllantirishdan iboratdir. Bu ikki yo‘nalish o‘rtasida o‘xshash jihatlar mavjud bo‘lsa-da, xarajatlar hisobi ko‘proq mahsulot va xizmatlar tannarxini aniqlash, xarajatlarni hisobga olish hamda ularni taqsimlash jarayonlariga yo‘naltirilgan hisob tizimidir. Menejment hisobi esa xarajatlarning korxona natijalariga ta’siri, resurslardan foydalanish samaradorligi va boshqaruv qarorlarining iqtisodiy oqibatlarini baholashga qaratiladi. Shuning uchun menejmentlik hisobi tannarx buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini kengroq iqtisodiy kontekstda talqin qiladi.

Menejment hisobining axborot bazasi tannaxr buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bilan chegaralanib qolmaydi, balki moliyaviy hisobotlar, pul oqimlari, bozor ma’lumotlari va prognoz tahlillar bilan boyitiladi. Tannaxr buxgalteriya hisobi odatda standart-kosting, normativ hisob, marjinal tahlil, byudjet nazorati kabi usullarga asoslanadi. Menejment hisobi esa qo‘shimcha tarzda pul oqimlari tahlili, foydalilik koeffitsiyentlari, likvidlik ko‘rsatkichlari, sezgirlik tahlili, ehtimollik modellaridan foydalanadi. Mazkur yondashuv menejment hisobini qisqa muddatli operatsion rejalashtirishdan tashqari, uzoq muddatli strategik qarorlar, investitsiya loyihalari va bozor sharoitlarini baholashda muhim vositaga aylantiradi. Shu bois, menejment hisobi ma’lumotlari ko‘proq obyektivlik, prognoziy xarakter va analitik yondashuvni talab qiladi.

Mamlakatimizda tannaxr buxgalteriya hisobini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchidan, tannaxr buxgalteriya hisobini boshqaruv hisobining tarkibiy qismi sifatida emas, balki alohida ilmiy fan tarmog‘i sifatida shakllantirish, uning predmeti va obyektini aniq belgilash muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu yondashuv tannaxr buxgalteriya hisobining metodologik asoslarini mustahkamlash va uning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida rivojlanishini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, tannarx tarkibini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) talablariga muvofiqlashtirish zarur. Bunda, asosiy komponentlar sifatida xom-ashyo va materiallar, mehnat haqi hamda ustama ishlab chiqarish xarajatlari

e’tirof etilishi lozim. Shu bilan birga, ushbu xarajat turlarining ichki tarkibiy elementlarini batafsil ishlab chiqish, ularning tasnifini aniq belgilash hamda “Xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanishi to‘g‘risidagi Nizom”ni zamonaviy iqtisodiy talablar asosida qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, tannaxr buxgalteriya hisobida zamonaviy costing tizimlarini keng joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Jumladan, jarayonli kosting (process costing), buyurtmali kosting (job-order costing), absorption costing, variable costing, standart kosting hamda ABC (Activity-Based Costing) tizimlarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy asoslangan metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi zarur. Ushbu yondashuvlar xarajatlarni aniqroq taqsimlash, tannarxni real baholash va boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, tannarx to‘g‘risidagi hisobot shaklini standartlashtirish va uning yagona formatini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur hisobot tizimi moliyaviy hisobot tarkibidagi “Sotilgan tayyor mahsulotlar (ish va xizmatlar) tannarxi” ko‘rsatkichini yanada batafsil va analitik tarzda ochib berish imkonini yaratadi. Bu esa ichki boshqaruv ehtiyojlari uchun ishonchli va chuqur tahliliy axborot bazasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, tannarx buxgalteriya hisobini fan tarmog’i sifatida e’tirof etish, uni o’quv rejalariga kiritish, ushbu faning ilg’or tajribalarini o’rganish va joriy etish davr talabi hisoblanadi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Executive programme cost and cost and management management accounting accounting. The institute of company secretaries of India// Laser Typesetting by Delhi Computer Services, Dwarka, New Delhi Printed at M. P. Printers/July 2017. 3-bet.

2. M.N. Arora. A textbook of Cost and Management Accounting (10th Revised Edition). Vikas publishing house PVT LTD. 2012.

3. Charles T. Horngren, Srikant M. Datar and Madhav V. Rajan. Cost Accounting: A Managerial Emphasis, 14th edition, ISBN 978-0-13-210917-8 by Charles T. Horngren, Srikant M. Datar and Madhav V. Rajan, published by Pearson Education, publishing as Prentice Hall © 2012. 26 p.

4. P.O. Malappuram, Kerala. Cost accounting. //https://sde.uoc.ac.in/sites/default/files/sde_videos/BComCoreCostAccounting_on09March2016.pdf